BOLALARDA LINGVISTIK IJODIY INTELEKTNI SHAKLLANTIRISH ERTAK VA QO‘SHIQLARDAN FOYDALANISH

M.K. Jabborova
Qarshi davlat universiteti doktoranti
e-mail: maftuna97jabborova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada erta maktab yoshidagi bolalarga chet tillarini o‘rgatishda qiziqarli ertak va qo‘shiqlardan foydalanishning usullari yoritilgan. Ertak va qo‘shiqlarni rolli tarzda bajarish orqali bolalardagi til o‘rganishga bo‘lgan intilishlarini uyg‘otish, hamda qiyinchiliklarsiz sodda va oson yo‘llar orqali lingvistik qobiliyatlarini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, fonetik, leksik, morfologik, qo‘shiq, rolli ertaklar, nutq apparatlari

Annotation: This article describes the methods of using interesting fairy tales and songs in teaching foreign languages to children of early school age. By performing fairy tales and songs in a role-playing way, it is thought about awakening children's desire to learn a language, and forming their linguistic abilities through simple and easy ways without difficulties.

Key words: linguistics, phonetic, lexical, morphological, song, role-playing tales, speech devices

Bolalarga chet tillarini erta yoshdan boshlab o‘rgatish, ulardagi tilshunoslik qobiliyatini oshirishga imkon beradi. Chunki bola tillarni o‘rganish jarayonida o‘z tili va o‘zga tillarni fonetik, leksik, morfologik jihatdan solishtiradi. O‘rganayotgan tilidagi madaniyat hamda urf-odatlar bilan tanishadi. Boshqa madaniyatlar bilan tanishish esa boladagi bag‘rikenglikni shakllantiradi. [2, 51-b.] Chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj yildan-yilga ortib borayotganligi sababli, boshlang‘ich sinflardagi ingliz tillarini o‘rgatishga ajratilgan dars soatlari o‘quv yuklamasining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Bu esa bolalardagi aqliy zo‘riqishga sabab bo‘lmoqda. Shunday ekan bolalarning chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va ularda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirishda ota-onalar ham o‘z hissalarini qo‘shishlari kutilgan natijaga erishish imkonini beradi.

N.V. Oxotinaning “Bolalar uchun quvnoq ingliz tili” dasturi bolalarda quvnoq usulda, hech qanday zo‘riqishlarsiz ingliz tilini o‘rganishlariga yordam beradi. Bolalar ingliz tilini o‘rganishda rolli o‘yinlardan, qo‘shiqlardan, ertak va hikoyalardan foydalanishadi. Ingliz tilini o‘rgatishga asoslangan mashg‘ulotlar guruhli tarzda tashkil etilib, guruhdagi bolalar soni 8-10 tadan oshmasligi kerak. 25-30 daqiqa davom etadigan dars mashg‘ulotlari belgilangan bosqichlarda amalga oshiradi.

Birinchi bosqich- tayyorgarlik. Fonetik jihatdan. Ushbu bosqichda yangi ingliz tili tovushlarini artikulyatsion apparatlar yordamida hosil qilinadi. Bunda eng asosiysi “quvnoq ingliz tili tovush”larini hosil qilishdir. Har bir tovushning o‘z rangi va o‘z hikoyasi bor. Buning yordamida bolalar uni eslashadi va bir biriga bog‘lashadi. Assimilyatsiya. Bundan tashqari bu bosqichning o‘ziga xosligi, bolalar harflar bilan bevosita tanishishlari hamda harflarga qo‘l bilan teginishlari ham mumkindir. Bolalar bilan ishlashda bu jarayonlarni bir-biriga bog‘lash judayam muhimdir. Chunki bola tug‘ilgandan boshlab, atrof-muhitni o‘rganishda oladigan bilimlarini

mustahkamlashda barmoq uchidagi retseptorlardan foydalangan holatda amalga oshiradilar. Bu retseptorlar orqali bola predmetlarning issiqligini, sovuqligini, g‘adir-budirligini, silliqligini bila oladi**.** Bu yerda bir xillik prinsipi qo‘llaniladi. Bu usul yordamida bola tovushlarning shaklini barmoqlari bilan his qilish orqali yanada yaxshiroq eslab qoladi. Bolalar uchun bu jarayon judayam qiziqarli bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich-leksik. Ushbu bosqichda yuqorida o‘rganilgan tovushlar yordamida hosil qilingan so‘zlar mobil ilovalar orqali bolalarga eshittiriladi. Bu jarayon o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Bolalar bu bosqichda chet tiliga oid bo‘lgan yangi so‘zlar bilan tanishishadi.

Uchinchi bosqich-musiqali. Bu bosqichda bolalarga ingliz tilidagi qo‘shiqlarni ijro etish yoki mashqlar yordamida amalga oshirish taklif etiladi. bu holat ularda lingvistik qobiliyatni oshishiga sababchi bo‘ladi. Qo‘shiq aytish orqali bolalarda eslab qolish, eshitish qobiliyatlarining shakllanishiga, boshqa mamlakatlarning madaniyati bilan tanishishiga va eng asosiysi so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz qilish orqali o‘rganishga imkon beradi. Mashqlar orqali chet tilini o‘rganish so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, nafaqat dars jarayonidagi aqliy zo‘riqishlarning oldini olishga yordam beradi.

To‘rtinchi bosqich-dialogli. Aynan shu bosqichda, o‘rganilgan yangi so‘z birikmalari nutq apparatlarida jonlantiriladi. Bolalar bu jarayonni olib borishda turli xildagi ertaklardan, rolli o‘yinlardan foydalanishadi. Ertak va rolli o‘yinlarni sahnalashtirilgan tarzda amalga oshirishadi. Bundan tashqari o‘rganilgan so‘zlardan dialoglar tashkil etishadi.

Beshinchi bosqich- yakuniy bosqich hisoblanadi va bu bosqichda o‘rganilgan so‘zlar, so‘z birikmalari takrorlanib, mustahkamlanadi.

O‘quvchilarning lingvistik ijodiy intelekti shakllanishida ertaklarning ham o‘rni beqiyos. Chunki bolalar ertaklarni sevishadi, uni jon quloqlari bilan tinglashadi, ertak qahramonlarining kechnmalarini his qilishadi. Shuning bilan birga ertak qahramonlariga aylangilari keladi. Shunday ekan biz bolalarga rolli o‘yinlar orqali, ertak qahramonlari obraziga kirishlariga imon beramiz. Dramatik elementlari mavjud bo‘lgan rolli o‘yinlar bolalar qalbida chinakam qiziqish uyg‘otadi. Shuning bilan birga o‘zlari xoxlagan tarzda chet tillarini bemalol osongina o‘rgana olishadi. O‘zbek yoki boshqa mamlakatlar ertaklarini ingliz tili talqinida, rollarga kirgan holatda amalda bajarish bolalarga o‘zgacha quvonch beradi. Bizga ma’lumki o‘zbek, rus xalq ertaklari qadim-qadimdan buyon bolajonlarning sevimli ertaklariga aylangan, ammo uning yangi talqinda amalga oshirilishi ertaklarning undanda sevimli bo‘lishiga sababchi bo‘ladi.

Dastlab bolalar, ertaklarni ijro etishdan avval ertak qahramonlarining so‘zlarini ingliz tilida yodlab, o‘zlariga tegishli bo‘lgan obrazlarni mashq qilib ko‘rishadi. Masalan rus xalq ertaklaridan hisoblangan “Teremok” (A small house) ertagini bolalarga aytib beramiz. Bu ertakni har bir bola biladi va ertakni odatiy holda eshitish ular uchun qiziqarli bo‘lmaydi. Ammo bu ertakni biz bolalarga yangi talqinda ijro ettirishimiz orqali ertakka bo‘lgan qiziqishlarini oshira olamiz. Avvalambor, bolalarga ertakni aytib berishdan oldin, ularga notanish bo‘lgan ingliz tilidagi so‘zlar bilan tanishtiramiz. So‘ng bolalarga shunday deymiz “I’ll speak in Uzbek, you'll speak in English, and otherwise I’ll speak in English, you'll speak in Uzbek”. Ushbu jarayon orqali bolalarga o‘zlarini tarjimon sifatida sinab ko‘rish imkoni beriladi. Keyin esa har biir bola o‘z rolidagi harakterlarni tavsiflab ertak qahramoniga aylanadi.

Eratk boshlanadi va o‘qituvchi quyidagi so‘zlarni aytadi: *– A small house stood in the open air.*

Bolalar ularga tanish bo‘lgan ertakni bilish va ingliz tilidagi eshitgan so‘zlari yordamida yuqoridagi so‘zni tarjima qiladilar. Ertak uchun oldindan uycha tayyorlangan va bezatilgan bo‘ladi. har bir bola esa, o‘z uy hayvonlari obraziga kirgan holatda o‘tirgan bo‘ladi.

O‘qituvchi davom etadi*: - A mouse is running by the small house.– Who is the mouse? Stand up.* Sichqoncha rolini ijro etayotgan bola o‘rnidan turadi. O‘qituvchi bolaga aytadi: *– You are running by the small house.* Ushbu so‘zlarni eshitgan bola “Present Continuous” zamonini bilmasdan turib, so‘zlarni tushunishi va o‘qituvchuga qarata javob berishi qiyin bo‘ladi. Ammo o‘qituvchi tana harkatlari va yuz ifodalari orqali bolaga nimani tasvirlab berishi kerakligini

o‘rgatadi. – *You like the small house and ask* (sen kichkina uychani yoqtirib qolasan va undan so‘raysan)*:Teremok, teremok, uychada kim yashaydi?*

– The small house, the small house, who lives in the small house?

– Nobody answered. The mouse is coming in the small house and begins to live there.

O‘qituvchi bolalarga tarjima qilishni yengillashtirish uchun ertakka oid bo‘lgan rasmlarni ko‘rsatadi hamda qahramonlar harakatini bajaradi. So‘ngra ertakdagi keyingi qahramon, ya’ni uy hayvoni hisoblangan qo‘y paydo bo‘ladi.

– A sheep is walking by the small house.

– Who is the sheep? Stand up.

– You are walking by the small house.

– You like the small house and ask: - Teremok, teremok, uychada kim yashaydi?

– The small house, the small house, who lives in the small house?

– I am a mouse. My name is … Who are you?

– I am a sheep. My name is … Let me in the small house.

– Let’s live together.

Ertak shu tarzda davom etaveradi, faqatgina ertak qahramonlari uy hayvonlaridan iborat bo‘ladi. “Teremok” ertagini yangi usulda sahnalashtirish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Uy hayvonlarining nomini ingliz tilida bilishni;
- Allaqachon ham leksik, ham fonetik jihatdan o‘rganilib bo‘lingan Present Contunious fellarini yangi shaklda o‘rganishni; (kimdir yuguradi, kimdir sakraydi, kimdir uchadi, kimdir o‘tiradi va hkzo)
- Avtomatik tarzda, nutq apparatlarida so‘zlarni aks ettirishni;

Ertak uyning mayda bo‘laklarga bo‘linib ketishi bilan an’anaviy tarzda yakunlanadi. Ertak qahramonlari esa yangi uy qurish uchun ishni boshlab yuborishadi. Uy yasash jarayonida qo‘shiq xirgoyi qilishadi. Nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalar, hattoki, maktab o‘quvchilari ham ingliz tilini qo‘shiqlar orqali o‘rganishni judayam yaxshi ko‘rishadi. Ertak va qo‘shiq aytish faoliyatining birgalikda olib borilishi bosh miya yarimsharlarining faol ishlashiga turtki beradi. Tadqiqiotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, bu ikki faoliyat jarayoni o‘rganilayotgan materialni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Musiqa bolalarni hissiyotlarga berila olishini, diqqatini jamlashni, tabiiy dunyoqarashini oshirishni va eng asosiysi chet tilini o‘rganishni osonlashtiradi. [1, 79-b].

Qo‘shiq va mashqlar orqali amalga oshiriladigan jismoniy tarbiya jarayoni barcha yoshdagi bolalar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Biz qo‘shiq kuylash yoki o‘yinlar orqali maktabdagi har qanday darslarni tashkil eta olamiz. Masalan, “Baa,Baa black sheep” qo‘shig‘i sinfda o‘quvchilar bilan birgalikda dumaloq shaklga kelgan holatda kuylanadi. O‘yinni qur’a tashlagan holatda qora qo‘yni tanlab olish bilan boshlanadi. Qo‘shiqni ijro etish jarayonida uy egasi, o‘g‘illari, bekasi va kichkina bolakay obraziga kirishadi. Bu jarayonni har qnaday qo‘shiq bilan amalga oshirish mumkin.

Erta maktab yoshidagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish jarayoni qiziqarli va samarali bo‘lishi uchun bir qator qoidalarga amal qilishimiz lozim. Ular:

- Darslar o‘yin shaklida tashkil etilib, bolaning xohish-istaklariga va tabiiy ehtiyojlariga mos keladigan bo‘lishi lozim;
- O‘quv materiallarini turli xildagi axborot vositalari (ovoz, video, grafika, modellar, rasmlar) orqali taqdim etish,
- O‘quv materiallarini taqdim etishda hamda ularni takrorlashda yangi usullardan foydalanish;
- Ta’lim olish jarayonida qulay shart-sharoitlar hamda do‘stona muhitni yaratish;
- Bola faoliyatini uning qiziqishlariga asoslangan holda tashkil etish;

Xulosa sifatida shuni keltirishimiz mumkinki, pedagog tomonidan puxta ishlab chiqilgan va tashkil etilgan ingliz tilini o‘rgatuvchi darslari o‘quvchilarning chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqlarini oshiradi. Boladagi lingvistik qobiliyatlarning shakllanishi qiziqarli tashkil etilgan dars jarayonlariga chambarchas bog‘langan. Ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, erta maktab

yoshida turli xil usullardan foydalangan holatda amalga oshirish, kelajakda ushbu tilni o‘rganish uchun asosiy poydevorni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мокерова Н. С., Протасова Е. В. Играя, познаем мир // Современное дошкольное образование: опыт, проблемы и пер- спективы: сборник научно-методических статей. Йошкар-Ола: Поволжский государственный технологический университет, 2014. С. 116–123.

2. Сластенин В. А. Педагогический процесс как система и целостное явление. -М.: Издат. дом МАГИСТР-ПРЕСС, 2000. С. 195–219.